

BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARDAN
FOYDALANISH - O'QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILI
SIFATIDA

To'ychibayeva Nigora Obidinovna

Namangan viloyati Chortoq tumani

48-IDUM boshlang'ich sinfi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinfi ona tili ta'limida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda mustaqil ishlardan foydalanish o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Unda mustaqil ishlarning turlari va xarakterli xususiyatlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili ta'limi, mustaqil ish, nutq, tafakkur, mustaqil fikrlash, aqliy faoliyat.

Аннотация. В данной статье обсуждается роль и важность использования самостоятельной работы в развитии мышления учащихся в начальной школе при обучении родному языку. Показаны виды и особенности самостоятельной работы.

Ключевые слова: начальное образование, обучение родному языку, самостоятельная работа, речь, мышление, самостоятельное мышление, умственная деятельность.

Annotation. This article discusses the role and importance of using independent work in the development of students' thinking in primary school mother tongue education. It shows the types and characteristics of independent work.

Keywords: primary education, mother tongue education, independent work, speech, thinking, independent thinking, mental activity.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi - har tomonlama rivojlangan barkamol insondir.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalardan biri atrof-olam voqea-hodisalarini ta'lim jarayoni orqali mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga, albatta, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirib borish orqali erishish mumkin.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlab ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo'llashni taqozo etmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilgan "mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi shaxsning

intellektual salohiyatini shakllantirishga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga zamin yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish qayd qilingan mazkur farmon boshlang'ich ta'lim tizimida ham o'qitish sifatini takomillashtirishni taqozo etadi.

Inson borliqning bir bo'lagi sifatida undagi har bir voqealikka o'ziga xos mulohaza bilan yondashmog'i, ko'rgan-eshitgan voqealarni ziyraklik bilan mulohaza qilishi, idobiy fikrlashi muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich ona tili ta'limini mustaqil ta'lim asosida o'qitish ta'lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Mustaqil ta'lim o'quvchilarning ona tilidan o'qitish sohasidagi bilimlarini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Binobarin, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili bo'yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish ta'limning tarbiyaviy ta'moyilini kuchaytirish, qiziqishini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish, tafakkurini o'stirish aynan mustaqil ta'lim asosida amalga oshiriladi. Bunday ishlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra xilma-xil bo'lib bevosita asosiy darslarning davomi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mustaqil ta'limda amalga oshirish qiyin bo'lgan vazifalarni hal qilishga keng yo'l ham ochiladi. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil qiladi. Ona tili darslarida mustaqil ta'limning turli xil usullaridan, ya'ni ta'lim texnologiyalaridan foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi.

O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo, mustaqil ishlarga tayyorlash, o'qituvchi tomonidan materialning muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borgan ma'qul: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, ijodiy ishlarni bajarish kabi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'quvchi mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallaydi.

Mustaqil ish o'quvchilarning o'zaro fikr almashinuvida, bog'lanishli nutqda, tanqidiy fikrlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi va ularning tafakkurini o'stirishda muhim omil bo'ladi. Mustaqil ishlar o'quvchilar amaliy faolligini oshirishda yagona yo'ldir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular quyidagi xususiyatlariga ko'ra xarakterlanadi:

- mustaqil ishlarda bajarish so'ralgan shartlar o'quvchilardan izlanuvchanlik talab qilishi;
- o'quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltirishi;
- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug'ilishi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida qo'llaniladigan mustaqil ishlarni guruhlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Reproduktiv mustaqil ishlar. Reproduktiv mustaqil ishlar o'quvchilarning avval olingan bilimlarini amalda qo'llashini nazarda tutadi. Bunday mustaqil ishlarga namuna asosidagi mustaqil ishlar, sharhlab yozish, grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mashqlar o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish jarayoniga qishman ta'sir ko'rsatadi va u ko'pincha darslik mashqlari asosida o'tkaziladi.

2. Rekonstruktiv mustaqil ishlar. Rekonstruktiv mustaqil ishlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilar muammoni hal etish uchun avval olgan bilimlarini hayolda faqat qayta tiklabgina qolmay, balki muammoni hal etish yo'llarining mavjud umumiy tushunchalardan qayshi biriga mos kelishini o'rganadilar. Bu tipdagi mustaqil ishlarga bayon, shaxsni o'zgartirib hikoya qilish, tahlil qilish, test topsiriqlari, tarqatma materiallar asosidagi mustaqil ishlar misol bo'la oladi.

Kuzatishlarga qaraganda, mustaqil fikrlash, avvalambor, yangi savol, yangi muammoni ko'ra bilish va qo'ya bilish, so'ngra uni o'z kuchi bilan hal qilishda namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, mustaqil fikrlash o'quvchilarning shunday faoliyatiki, unda o'quvchilar maksimal faollik, ijodkorlik, mustaqil hukm chiqarish va tashabbuskorlikni namoyon qiladilar. Natijada ular shu jarayonda:

- bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo'llash;
- mavzularni o'rganish davomida yangi muammoni ko'ra bilish;
- bir muammoning bir nechta yechimlari bo'lishi mumkinligini anglash;
- avval ma'lum bo'lgan muammolarni hal qilish usullarini kombinatsiyalash;
- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallay boradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan va boshqa shu kabi ishlarni bajarish davomida o'quvchi faoliyatida ongli mustaqillik darajasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: bilish, fikrlash, eslab qolish yoki ma'lum tushunchalar asosida yangi dallillar, hodisalar, voqealarni keltirish.

Ish mazmuniga ko'ra o'xshash topshiriqlarni bajarishdagi o'quvchi harakatlari mustaqil bo'lmaydi, chunki ular namuna asosida bajariladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi faoliyati ham elementar darajada bo'ladi. Negaki, u oddiy qayta ishlash ko'rinishida tayanch tushunchalar asosidagi harakatlari fikrlash tarziga kam ta'sir o'tkazadi.

Tafakkurning yetarli darajada rivojlanmashligi, M.Saidov ta'kidlaganidek, "o'quvchi faoliyatida tez-tez duch keladigan so'z qashshoqligi, fikrni mantiqan bayon qila olmashlik, fikrni mustaqil izchillikda bera olmaslik, bayon qilinishi lozim bo'lgan fikrlarni mantiqiy bo'laklarga ajrata olmashlik, mavzu talabidan chetga chiqishi"ga olib keladi. Bu esa masalaning g'oyatda muhimligini ko'rsatadi. Shunday ekan, ona tili ta'limida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi shaxs tarbiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning zarur shartlaridan biridir. Inson o'z xatti-harakatlari, faoliyati davomida qay darajada mustaqil fikrli bo'lsa, shu qadar tushunchasi keng, aql-idroki yuksak hisoblanadi. Fikr nutq orqali ifoda etilishi nazarda tutilsa, ona tili ta'limi oldida nechog'li mas'uliyatli vazifani hal qilish masalasi turganini anglash qiyin emas. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro

baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirish, ular tafakkurini o'stirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
2. Roziqov O. va boshqalar. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.